# BUXORO GIDRONIMLARINING LEKSIK KATEGORIYALARI

***Bobomurodova Mahzuna Ortiq qizi***
Termiz davlar pedagogika instituti
2-kurs magistranti

**Annotatsiya**: Maqolada Buxoro viloyatidagi gidronimlarning etnomadaniy, lingvistik va tarixiy xususiyatlari batafsil o'rganilgan. Suv obyektlari – daryo, ariq, quduq, kanal, ko'l va suvomborlar orqali hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivoji hamda aholi turmush tarzi aks ettiriladi. Tahlil gidronimlarning semantik, morfologik va etnik asoslarini yoritib, ularning hududning etnomadaniy manzarasidagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar**: Buxoro, gidronim, daryo, ariq, quduq, ko'l, kanal, suvombor, etnomadaniyat, lingvistika, toponim.

**Аннотация:** Статья посвящена исследованию этнокультурных слоёв гидронимов Бухарской области. Рассмотрены исторические, лингвистические и топонимические особенности названий рек, каналов, арыков, колодцев, озёр и водохранилищ. Анализ гидронимов выявляет их семантическую, морфологическую и этническую основу, отражающую культурные традиции, хозяйственную деятельность и историческое развитие региона. Работа подчеркивает важность гидронимов для понимания этнокультурного ландшафта Бухары.

**Ключевые слова:** Бухара, гидроним, река, арік, колодец, канал, озеро, водохранилище, этнокультура, лингвистика, топоним.

**Annotation**. The article examines the ethnocultural layers of hydronyms in the Bukhara region. It explores the historical, linguistic, and toponymic characteristics of rivers, canals, irrigation channels, wells, lakes, and reservoirs.

The analysis highlights the semantic, morphological, and ethnic foundations of hydronyms, reflecting local cultural traditions, economic activities, and historical development. The study emphasizes the significance of hydronyms for understanding the ethnocultural landscape of Bukhara.

**Keywords:** Bukhara, hydronym, river, canal, irrigation channel, well, lake, reservoir, ethnoculture, linguistics, toponym.

**Kirish.** Onomastika bugungi tilshunoslikda shunchaki ismlar va nomlar ro'yxati emas, balki tilning ijtimoiy taraqqiyot bilan qanchalik chambarchas bog'liqligini ko'rsatuvchi mustaqil va salmoqli yo'nalishga aylandi. O'tgan asrning o'rtalaridan boshlab bu sohadagi izlanishlar tor lingvistik doiradan chiqib, tarixiy haqiqatlar, geografik muhit va jamiyat madaniyati bilan uyg'unlikda o'rganila boshlangani e'tiborga molik.[1. 15] Bunday keng qamrovli yondashuv har bir nom ortida murakkab bir tarixiy qatlam yotganini anglashga xizmat qilmoqda. Xususan, suv obyektlari nomlarini o'rganuvchi gidronimika sohasi bu borada alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki gidronimlar tilning eng qadimiy leksik boyliklarini o'zida saqlab qolgan, asrlar osha o'zgarmasdan kelayotgan jonli tarixiy manbalardir.

Gidronimlarning hayratlanarli jihati shundaki, ular asrlar davomida deyarli o'zgarmasdan, barqaror saqlanib qolish xususiyatiga ega. Aynan shu sababli ham, suv obyektlari nomlarini o'rganish muayyan bir hududning til tarixini va madaniy ildizlarini ochib berishda betakror manba bo'lib xizmat qiladi. Gidronimik birliklarning tuzilishi va ulardagi ma'no qatlamlarini tahlil qilish orqali biz o'tmishdagi murakkab etnik jarayonlar, xalqlarning ko'chib yurish (migratsiya) yo'nalishlari hamda qadimiy tillararo aloqalarni aniq ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, suv nomlari shunchaki atama emas, ularda o'sha hududning tabiiy

manzarasi, xalqning turmush tarzi va milliy xotirasi muhrlangan bo‘ladi. Shunday ekan, gidronimlarni ham lisoniy, ham tarixiy-madaniy (ekstralingvistik) omillar asosida tadqiq etish butun bir mintaqaning etnomadaniy qiyofasini qayta tiklash imkonini beradi.

Gidronimlar faqat geografik belgilash vositasi bo‘lib qolmay, balki milliy ong, madaniy meros va tarixiy jarayonlarning aks etish shakllaridan biri sifatida ham o‘rganiladi.[1. 27-b]

O‘zbekistondagi suv obyektlari nomlarini ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etish masalasi dastlab P. Baratovning geografik izlanishlarida o‘z aksini topgan. Olimning mashhur “O‘zbekistonning tabiiy geografiyasi” darsligi, ayniqsa, uning “Daryolar” deb nomlangan qismi yurtimiz gidronimlarini o‘rganishda muhim poydevor vazifasini o‘taydi. Mazkur asarda Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon kabi ulkan daryolarning nafaqat geografik tabiati, balki ularning nomlanishi bilan bog‘liq tarixiy jarayonlar ham atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotda, ayniqsa, Sirdaryoning ko‘hna tarixiy bitiklarda uchraydigan Yaksart, Sayhun, Silis kabi nomlari hamda daryo irmoqlariga berilgan o‘ziga xos ta’riflar bugungi gidronimika fani uchun juda qimmatli ma’lumotlar hisoblanadi.

O‘tgan asrning 1960–1970-yillaridan boshlab o‘zbek gidronimlarini maxsus ilmiy tadqiq etish ishlari yo‘lga qo‘yildi. Mazkur davrda nashr etilgan A. Ishayevning Qashqa, T. Nafasovning Norin, H. Sharipovning Itoqar, N. Begaliyevning Sirdaryo gidronimlariga bag‘ishlangan izlanishlari hamda A. Nabiyevning Toshkent shahri ariqlari haqidagi tadqiqotlari o‘zbek gidronimiyasining dastlabki ilmiy asoslarini yaratdi. Ushbu ishlar keyingi gidronimik tadqiqotlar uchun muhim manba vazifasini o‘tamoqda hamda sohaning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi[ 3. 33-b].

So'nggi yillarda akademik S. Qorayev tomonidan tuzilgan "O'zbekiston viloyatlari toponimlari" nomli lug'atda respublika hududida uchraydigan bir qator gidronimlarning izohi keltirilgan. Xususan, Toshkent mintaqasiga oid Chakar (Toshariq), Quvurariq, Tuyatortar, Zaxariq kabi suv obyektlari nomlari hamda Shahrud, Gulisoy, Qalqonrud, Qarag'anjiyda, Ko'hak (Zarafshon), Sirdaryo kabi yirik gidronimlarning kelib chiqishi va semantik xususiyatlari haqida muhim va ishonchli ma'lumotlar berilgan.[2. 240-b]

Buxoro vohasining tarixiy toponimiyasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar bizgacha yunon tarixchilarining asarlari orqali yetib kelgan. Yunon tarixnavislari, jumladan Arrian, Gerodot, Kurtsiy Ruf va Strabon, o'z yozmalarida Buxoro vohasi va uning asosiy suv manbalaridan biri bo'lgan Zarafshon daryosi haqida qaydlar keltirgan. Ularning yozishicha, Zarafshon daryosi qadimiy davrlarda Politimet nomi bilan atalgan va vohani sug'orish, hayot uchun zarur suv bilan ta'minlashda muhim rol o'ynagan. Shu manbalar orqali Buxoro hududining qadimiy suv tizimi, daryo va irmoqlarining geograflik xususiyatlari haqida asosli ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Buxoro nomi ilk bor yunon astronomi va geografiyasi olimi Klavdiy Ptolemeyning "Geografiya" asarida qayd etilgan. Ushbu manbalar Buxoro vohasining geografik va iqtisodiy ahamiyati, shuningdek, qadimiy savdo yo'llari bilan bog'liqligini ochib beradi. Yunon manbalari bilan bir qatorda, Xitoy va arab yozma manbalari ham Buxoro va uning atrofidagi hududlarning nomlanishi, joylashuvi va tabiiy sharoiti haqida muhim ma'lumotlarni bugungi kungacha yetkazib kelgan. Xitoy manbalarida Buxoro nomlari turlicha ko'rinishlarda uchragan: An, Ansi, Buxala, Buxo, Puxala, Fuxo. Bu esa hududning tarixiy nomlanishining ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi.

O'rta asr tarixchisi va geograf Narshaxiy "Buxoro tarixi" asarida Buxoro hududining gidronimik tizimi haqida muhim ma'lumotlarni qoldirgan. U suv tizimlarini anhor atamasi bilan belgilab, voha va uning atrofidagi sug'orma tizimlarining tarixiy ahamiyatini yoritgan. Narshaxiy qaydlariga ko'ra, Buxoro hududidagi anhorlar va daryolar o'rta asrlarda nafaqat sug'orish tizimi, balki ijtimoiy va iqtisodiy hayotning ajralmas qismi bo'lgan. Shu bilan birga, ular voha aholisi, dehqonchilik va savdo faoliyati uchun muhim resurs sifatida xizmat qilgan.

Uning yozuvlarida sanab o'tilgan anhorlar va daryolar qatorida quyidagilar mavjud: Karmina anhori, Shopurkom anhori, Harqonat ul-Ulyo anhori, Harqonrud, Ovxatfar yoki Rudi Nafar, Somjan, Baykonrud, Farovizi Ulyo, Faroviz is-Suflo yoki Komi Daymun, Arvon, Kayfur, Rudi Zar. Ushbu gidronimlar o'sha davr Buxoro vohasining sug'orma tarmoqlarini, suv resurslarining tabiiy va sun'iy taqsimlanishini, shuningdek, hududning geografik joylashuvi bilan bog'liq qirralarni ochib beradi.[4. 34-35-b] Narshaxiy qayd etgan suv obyektlari nomlari bugungi kunda ham Buxoro gidronimiyasini o'rganish va tarixiy evolyutsiyasini aniqlashda ishonchli manba hisoblanadi. Shu tariqa, o'rta asr manbalariga tayangan holda, Buxoro vohasining gidronimik tizimi va suv resurslarining tarixiy taraqqiyoti haqida mukammal tasavvur hosil qilish mumkin.

Buxoro viloyatidagi suv obyektlari va ularning nomlari hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular sug'orish tizimining ajralmas qismi sifatida shakllangan. Hududdagi 25 ta ariq, 8 ta buloq, 3ta daryo, 15 ta kanal, 46 ta kollektor, 12 ta ko'l, 16 ta quduq, 11 ta suvombor, 5 ta suv tashlamalari, 4 ta hovuz mavjud bo'lib, ular viloyat suv resurslarining turli ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Viloyat gidronimiyasida eng markaziy o'rin Amudaryo va Zarafshon daryolariga tegishli. Tarixan, XX asrning 1970-yillarigacha viloyatning suv bilan ta'minlanishi asosan Zarafshon daryosi orqali amalga oshirilgan. Bu daryo nafaqat sug'orish tizimi, balki aholining ichimlik va hayotiy ehtiyojlarini qondirishda ham muhim manba bo'lgan[5. 86].

Keyinchalik Amu-Buxoro kanallari tizimi viloyatning suv ta'minotida asosiy o'rin egalladi. Kanallar orqali suvning samarali taqsimlanishi, dehqonchilik maydonlarining kengayishi va sug'orish tizimining tartibga solinishi ta'minlangan. Shu tarzda, Buxoro viloyati gidronimlari nafaqat tabiiy geografik ob'ektlar, balki hududning iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq ekanligi ko'rinib turadi. Buxoro gidronimlarini tahlil qilishda quyidagi guruhlarga ahamiyat qaratdik:

**Ariqlar** Buxoro viloyatining sug'orish tizimining muhim qismi bo'lib, ular dehqonchilik va madaniy hayotning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Ariqlar nomlanishi hududiy, etnik va gidronimik asosga ko'ra tasniflanadi:

a. Toponim asosidagi ariqlar: *Romitanariq, Eski Shofirkon arig'i, Zirobodariq, Saribozorariq, Tayqirariq, Vahmariq, Mug'iyon arig'i*. Ushbu nomlar asosan aholining yashash maskanlari, qishloq yoki shaharcha nomlaridan kelib chiqqan.

b. Etnonim asosidagi ariqlar: *Uyg'urariq, xonariq*. Bu nomlar ma'lum bir etnik guruh yoki xalq bilan bog'liq bo'lib, hudud tarixidagi etnik tarkibni aks ettiradi.

c. Gidronimik birlik ishtirokidagi ariqlar: *Soyinko'l, Xo'jaariq, Yomonjar, Qaynaro'd.* Bu nomlar ariqlarning boshqa suv obyektlari yoki daryolar bilan bog'lanishini bildiradi va sug'orish tizimining murakkabligini ko'rsatadi.

**Quduqla**r viloyat hududida suv yetishmovchiligi va cho'l-dasht sharoitlariga moslashgan muhim gidrotizim ob'ekti hisoblanadi. Buxoro viloyatidagi quduqlar ko'pincha suvni bahorgi va yozgi mavsumlarda yetkazib berish uchun ishlatiladi. Viloyatda jami 16 ta quduq mavjud. Ularning nomlari turlicha kelib chiqqan:

a) etnonim asosida (*Qozoqquduq, Qovoqliquduq*),

b) antroponim asosida (*Shopo'lat*),

*c)* hududiy xususiyatlar bilan bog'liq (*Ochroqquduq, Saydonquduq, Qamishli, Darboza, Oqqana, Ovulquduq, Divolqoq, Shosuvar, Yangiquduq, Toshquduq, Jarqoq).*

Quduqlar viloyat aholisi uchun suv manbai sifatida ahamiyatlidir, ayniqsa qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishda va ichimlik suvi ta'minotida muhim rol o'ynaydi. Ularning nomlari ko'pincha ularning joylashuvi, atrofdagi geografik belgilar yoki ularni qazgan shaxslar nomi bilan bog'liq bo'ladi, bu esa hudud tarixini o'rganishda qo'shimcha ma'lumot manbai sifatida xizmat qiladi.

**Ko'llar** Buxoro viloyatida tabiiy va sun'iy shaklda uchraydi va ular suv resurslari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning asosiy markazlaridan biri hisoblanadi. Viloyat hududidagi 12 ta ko'l turli semantik asoslar bo'yicha nomlangan:

a. Toponim asosida: *Xo'jasayot ko'li (Olot t.)* – hududiy obyekt nomi bilan bog'liq.

b. Gidronim asosida: *Dengizko'l (Olot t.), Oyoqog'itma ko'li (G'ijduvon t.), Zarafshon ko'li (Jondor t.)* – daryolar yoki boshqa suv obyektlari bilan bog'liq.

c. Fitonim asosida: *Jiydako'l* (Olot t.) – hududda o'sadigan o'simlik yoki daraxt nomi bilan ifodalangan.

d. Oronim asosida*: Zamonbobo ko'li (Qorako'l t.), Qoraqir ko'li (Peshko' t.)* – hududning topografik xususiyatini aks ettiradi.

e. Ma'lum belgi asosida: *Qorong'iko'l, Sho'rko'l, Madanko'l, Sho'rqoq ko'li* (Qorako'l t.) – ko'llarning rangi, sho'rligi yoki boshqa xususiyati bilan bog'liq.

**Kanallar.** Buxoro viloyatidagi kanallar – sug'orish tizimining muhim sun'iy elementlari bo'lib, ular ekin maydonlarini suv bilan ta'minlash va ortiqcha suvlarni oqizish uchun maxsus qazilgan. Kanallar viloyatning sug'orish tizimini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi va ularning nomlari hududiy, shaxsiy va gidronimik xususiyatlarga ko'ra tasniflanadi:

a. Toponim asosida nomlangan kanallar: *Kamot kanali (Vobkent t.), Jilvon kanali (Peshko' t.), Sayot kanali (Qorako'l t.), Mingchinor kanali (Shofirkon t.).* Ushbu nomlar kanalning o'tgan hududi yoki unga yaqin yashash maskanlariga nisbatan berilgan.

b. Antroponim asosida nomlangan kanallar: *Karyakin kanali (Buxoro t.), Sharof Rashidov nomidagi Amu-Buxoro kanali (Vobkent t.), Oxunberdi kanali (Kogon* t.). Bu nomlar kanallarni yaratgan shaxslar yoki ularning xizmatlariga hurmat sifatida qo'yilgan.

c. Gidronim asosida nomlangan kanallar: *Shohro'd (Buxoro t.), Moxon kanali, Quyimozor kanali (Jondor t.), Sho'rko'l qaytaruvchi kanali (G'ijduvon t.), Qorovulbozor magistral kanali (Qorovulbozor t.).* Bu nomlar kanalning boshqa suv obyektlari bilan bog'liqligini bildiradi.

**Kollektorlar** (zaxkashlar) – drenaj tizimining suv yig'uvchi qismlari bo'lib, melioratsiyalangan maydondan ortiqcha suvlarni oqizish vazifasini bajaradi. Buxoro viloyatida kollektorlar tizimi yer osti suvlarining nisbatan yuqoriligi va

hududning meliorativ xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ularning nomlari turli semantik guruhlarga ajratiladi:

a. Antroponim asosida: *Abdullaxon kollektori (Peshko‘ t.), Amir Temur kollektori (Buxoro t.), Oxunboboyev kollektori (Romitan t.), Bahouddin kollektori* (Kogon t.). Ushbu nomlar tarixiy shaxslar yoki kollektorga hissa qo‘shgan mutasaddilar nomidan olingan.

b. Toponim asosida: *Arabxona zahkashi, Navmetan zahkashi, Muchavuz, So‘fikorgar, Vobkent, Xayrobod, Torob, Xumdonak, Ko‘rak, Olot, Zandani, Pirmast, Naqib, Piyozkor, Saroydeycha, Qorako‘l zahkashi*. Ushbu nomlar aholi punktlari yoki hududiy obyektlarga nisbatan qo‘yilgan.

c. Xususiyat yoki belgi asosida: *Kalta zahkash, Chaqmoq zahkash, Markaziy Buxoro, Katta zovur, Sho‘rkashon, Markaziy Olot, Tarmoq kollektori, Asosiy drenaj kollektori, Bosh Buxoro kollektori, Qorako‘l bosh kollektori*. Bu nomlar kollektorga xos tabiiy yoki sun’iy belgilar bilan bog‘liq.

*d.* Joylashish asosida*: G‘arbiy Torob (Jondor t.), Janubiy kollektor (Kogon t.), Janubiy birlashtiruvchi kollektor, G‘arbiy Qorako‘l (Olot t.), Shimoliy (Peshko‘ t.), Shimoliy Buxoro (Romitan t.).*

**Suv omborlar** – to‘g‘onlar yordamida suvni yig‘ish va saqlash uchun quriladigan sun’iy suv havzalari hisoblanadi. Buxoro viloyatida jami 12 ta suvombor mavjud bo‘lib, ular hududning suv ta’minoti va sug‘orish tizimi uchun muhim ahamiyatga ega:

a. Asosiy suv omborlar: *To‘dako‘l, Quyimozor, Dengizko‘l.*

b. Mavsumiy suv omborlar: *Qizilqoq (Peshko‘ t.), Sarashuqoq (Romitan t.), Ashiqoq, Ko‘lbeshqoq, Samadqoq, Yomoninqoq, Chaylayirqoq (Qorako‘l t.).* Ushbu suv omborlar bahorgi yomg‘irlar vaqtida to‘lib, mavsumiy tabiatga ega. Suv

ombor nomlaridagi "qoq" komponenti – bahorgi mavsumda suv bilan to'ladigan sayoz botiqni bildiradi.

**Daryolar.** Viloyat hududidagi daryolar sug'orish tizimi va ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyatga ega.

*Zarafshon daryosi* – Buxoro viloyatining eng muhim daryosi hisoblanadi. U uzoq yillar davomida viloyat hududini sug'orish va ichimlik suvi bilan ta'minlagan. Tarixiy manbalarda Zarafshon "Politimet" deb nomlangan.[6.64-b] Daryoning suv oqimi viloyatning agrar hududlarini sug'orish, sug'orish tizimining barqaror ishlashini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlashda asosiy manba hisoblanadi.

*Amudaryo* – to'g'ridan-to'g'ri Buxoro hududidan o'tmasa-da, Amu-Buxoro kanal tizimi orqali viloyatga suv olib keladi. Ushbu tizim XX asrning o'rtalaridan boshlab viloyat sug'orish tizimida asosiy rol o'ynay boshladi.

**Xulosa.** Buxoro viloyati gidronimlarining etnomadaniy qatlamlarini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, suv obyektlari nomlari nafaqat geografik belgilash vositasi, balki hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishining aks etish shaklidir. Viloyatdagi ariqlar, quduqlar, ko'llar, kanallar, kollektorlar, suvomborlar va daryolarning nomlari o'ziga xos lingvistik, etnik va topografik asosga ega bo'lib, ular hududning qadimiy suv tizimi va sug'orish inshootlari bilan uzviy bog'liqdir.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Kamolov A. Gidronimikaning lingvistik va madaniy – tarixiy ahanmiyati. Science time ISSN 2992-8850 VOLUME: 3 ISSUE:1 27-b
2. Қораев С. Ўзбекистон вилояти топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. 240-b

3. Majidova, Sh.K. (2024). Surxondaryo gidronimlarining lingvistik tahlili Dissertatsiya Termiz.: 2024 86-b
4. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий Бухоо тарихи. –Т.: Фан, 1966.
5. Kilichev B. Buxoro viloyati toponimlarining lisoniy tadqiqi Dissertatsiya. Buxoro:2023, 91-b
6. Hakimov Q. Toponimika. T.: Mumtoz so'z, 2006 64-b
7. Адизова Н. Бухоро тумани микротопонимларининг лексик-семантик тадқиқи. Филол. фан. бўйича. фалс. док. дисс. – Бухоро
8. Бегалиев Н. Самарқанд вилояти гидронимлари (лисоний таҳлил).
9. Филол. фан. номз. …дисс. автореф. – Самарқанд, 1994..
10. Uluqov N. O'zbek tili gidronimlarining tarixiy-lisoniy tadqiqi. Toshkent. "Fan", 2008 190-b
11. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro'z, 2017.
12. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
13. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
14. Xurramovna, Q. G., & Donaboyevna, S. M. (2025, November). " Layli va Majnun" dostonida onomastik birliklar. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY* (Vol. 2, No. 5, pp. 157-158).
15. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.
16. Dilshoda, A., Dilfuza, T., Muxlisa, M., & Dildora, A. (2025). MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA HAYOTIYLIK. SHOKH LIBRARY, 1(11).

17. Abdurashidovich M. A. LINGUISTIC APPROACH TO NESTED DICTIONARIES AND THEIR HISTORICAL DEVELOPMENT //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 144-147.
18. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). "LISON UT-TAYR" DOSTONINING BOBLAR BO 'YICHA TASNIFI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, *17*(02), 117-121.
19. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).
20. Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna, Abduhakimova Shahlo Shuxratjon qizi. (2026). INGLIZ TILI SINFLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'ZARO HAMKORLIGI NAZARLARI: DUXTAT TAHLILI. *Efiopiya xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali* , *13* (03), 1266–1270.
21. Iboralarni uslublarga ajratish mezonlari: nazariy va amaliy yondashuv (frazeologik birliklar stilistik tahlili asosida). (2025). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, *2*(6), 12-16.
22. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
23. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.